

ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MEROSINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Jabbarova Sabo Xamdamovna

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
o'qituvchisi*

Xurramova Ziyoda Maxmadali qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

Telefon: +998944488337

Email: sabojabbarova8@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ma'naviy merosining yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Navoiy asarlarida ilgari surilgan ilm-ma'rifat, komil inson, adolat, diyonat, sabr-toqat, so'z madaniyati kabi g'oyalar bugungi yosh avlod tarbiyasida muhim manba sifatida tahlil qilinadi. Xususan, "Mahbub ul-qulub" asari misolida mutafakkirning ta'lim-tarbiya, ilmga intilish va jamiyat taraqqiyotiga oid qarashlari ochib beriladi. Maqolada Navoiyning ma'naviy merosi yoshlar ongida milliy qadriyatlar va ezgu insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim ma'naviy omil ekani asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, ma'naviy meros, yoshlar tarbiyasi, ilm-ma'rifat, komil inson, so'z qudrati, "Mahbub ul-qulub", milliy ma'naviyat.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение духовного наследия великого мыслителя Алишера Навои в воспитании молодёжи. Анализируются идеи науки и просвещения, нравственного совершенства, справедливости, терпения и культуры слова, отражённые в произведениях Навои. Особое внимание уделяется философско-воспитательному содержанию произведения «Махбуб ул-кулуб», в котором раскрываются взгляды автора на роль образования, личности и общества. Обосновывается, что духовное наследие Алишера Навои является важным источником формирования национального самосознания и высоких нравственных качеств у подрастающего поколения.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, духовное наследие, воспитание молодёжи, наука и просвещение, совершенная личность, сила слова, «Махбуб ул-кулуб», национальная духовность.*

Annotation: *This article explores the significance of the spiritual heritage of the great thinker Alisher Navoi in the moral and educational upbringing of young people. The study analyzes Navoi's ideas on knowledge, enlightenment, moral perfection, justice, patience, and the power of words as reflected in his works. Special attention is paid to the philosophical and educational content of Mahbub ul-Qulub, which highlights the author's views on education, personality development, and social harmony. The article emphasizes that Alisher Navoi's spiritual legacy plays a crucial role in fostering national values and noble human qualities among the younger generation.*

Keywords: *Alisher Navoi, spiritual heritage, youth education, knowledge and enlightenment, perfect individual, power of words, Mahbub ul-Qulub, national spirituality.*

“Turkiy tilda hech kim Navoiydek ko‘p va xo‘p she‘r
aytmagan hamda nazm gavharlarini sochmagan edi”.

Abdurahmon Jomiy “Bahoriston”dan

Alisher Navoiy mumtoz adabiyotimizning markaziy siymosi. Buyuk mutafakkirning ijodini qanchalik chuqur va puxta bilsak, ma‘rifat, ezgulik, komillik sirlarini kengroq anglab boraveramiz. Navoiyning so‘zlari qalbiga o‘rnashgan har bir inson odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi, ilm-ma‘rifatni-nodonlikka va jaholatga qarshi qurol sifatida ishlatadi.

Alisher Navoiyning ibratli faoliyati bugun istiqlol farzandlari uchun har tomonlama ibrat maktabi vazifasini o‘taydi. Shunday ekan, har bir avlod vakili ilmning yuksak cho‘qqisini egallashga harakat qilmog‘i va Birinchi Prezidentimiz ta‘bir bilan aytganda, hech kimdan kam emasligini amalda isbotlab bermog‘i lozim.

Albatta, yoshlarimiz mutafakkir hayoti va ijodini qanchalik chuqur va puxta bilsa, ma‘rifat, ezgulik, komillik sirlarini o‘shancha kengroq egallaydi. Navoiyning sehrli so‘zlarini qalbiga o‘rnatgan odam, odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi. Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi xalqning dard-u tashvishlarini yengillatishga bel bog‘laydi, ilm-ma‘rifatni-nodonlik va jaholatga qarshi qurol o‘rnida ishlatadi. Navoiyni anglash, uning siymosiga intilishning g‘oyat muhimligini bilish-adolat, diyonatning kuchiga ishonish demak. Ko‘ngliga shunday ishonch g‘olib bo‘lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko‘paysa, insonlarning bilib-bilmay qilgan xato va muammolari kamayib boradi.

Alisher Navoiyning ma‘naviy merosi milliy ma‘naviyatimizning yuksalishida, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topishida teran ahamiyatga ega. Mutafakkir faoliyatiga xos ilm-u ma‘rifatga intilib yashash ishqiy asarlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Ayniqsa, uning “Mahbub ul-qulub” asari falsafiy fikrlarga boy, inson va jamiyat, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, komil inson baxt saodati, adalatli jamiyat, ta‘lim-tarbiya, ta‘lim-tarbiyada ota-onaning mas‘uliyati, sabrlilik, diyonatlilik, birodarlik kabi qator masalalarni qamrab olgani bilan qimmatlidir. Ushbu asarda shaxs, barkamol inson yetakchi o‘rinda turadi va yana bir karra ilm ahli ulug‘lanadi.

Ilmdan chetda qolgan xalq o‘rtasida qaysar, johildir,

O‘rganishga qattiq tirishgan jahonning zo‘r olimidir.

“Mahbub ul-qulub”da shu kabi serma‘no va ibratli fikrlarni juda ko‘p uchratamiz.

Ilm o‘qib durust ishlata olmadi,

Go‘yo urug‘ sochib hosil olmadi.

Ilm olib, undan hayoti davomida unumli foydalana olmagan, ezgu amallar qilishga shoshmagan insonlarni, go‘yo urug‘ ekib, undan hosil olmagan dehqonga o‘xshatadi. Alisher yuqoridagi bayti bilan barcha fanlarni o‘rganishni targ‘ib etadi. Uning fikricha, bilimlarni tinmay o‘rganish zarur, bunda har qanday qiyinchilikni yengib o‘tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurashish, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o‘rganishni ta‘kidlaydi.

Buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o'z davrida to'g'ri ifodalab, hatto ilm tizimini belgilab beradi, ya'ni o'quv muassasasida o'qish, olim, hunarmand, ustozlarga shogird tushishni yoki mustaqil holda ilm olishni tavsiya etadi.

Navoiy yaxshi muomala va samimiy munosabat mazmunidagi shirin so'z qalblarga sevinch bag'ishlaydi deb, so'z qudratini benihoya ulug'lagan va qudratini o'z davridayoq hayotlik chog'idayoq sinab ko'rgan ulug' siymodir. Bu xususida alloma shunday yozadi:

So'zdurki, nishon berur o'likka jondin,

So'zdurki, berur jonga xabar jonondin.

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

Demak, insonning tirikligidan nishona ham so'z, oshiqqlar qalbidagi ishq-muhabbatni tarannum etuvchi ham so'z, hayvonot olamidan insonni ajratib turuvchi ham so'z-ekanini uqtirarkan, undanda go'zal va latifroq narsa yoqligiga ishontiradi. Navoiy so'z guharini, uning qadr-qimmatini va go'zalligini, inson ruhida jon kabi muhimligini ta'kidlaydi.

Ulug' mutafakkirning ulkan ijodini dengizga qiyoslash mumkin. Unda dur-u javohirlar behisob, biz undan bir qatrasinigina bayon etoldik xolos. Hazrat Navoiyning bebeho merosidan xalqimizni, ayniqsa yoshlarimizni qanchalik ko'p baxramand eta olsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topishida shunchalik ma'naviy qurolga ega bo'lamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011.
2. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: Fan, 2012.
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Jomiy A. Bahoriston. – Toshkent: O'zbekiston, 2004.
5. Yo'ldoshev B. Alisher Navoiy va ma'naviy tarbiya masalalari. – Toshkent: Fan, 2015.
6. Abdullayev S. O'zbek mumtoz adabiyotida komil inson g'oyasi. – Toshkent: Universitet, 2018.
7. Rasulov A. Navoiy asarlarida ilm va tarbiya masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2020.